



INSON KAPITALIGA INVESTISIYALARNI JALB QILISHNING ILG'OR XORIJ TAJRIBALARI

ADVANCED FOREIGN EXPERIENCES IN ATTRACTING INVESTMENT IN HUMAN CAPITAL

¹Zayniddin Aloviddin
Zayniddin o'g'li

¹Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi.
G-mail: eleganteo70@gmail.com

Annotatsiya Abstract

Uzb. - Maqolada inson kapitaliga investitsiyalarni jalb qilishning ilg'or xalqaro mexanizmlarini tahlil qilish, ularning samaradorligini baholash hamda milliy amaliyotga tatbiq etish imkoniyatlarini ilmiy asoslashga harakat qilingan. Inson kapitaliga investitsiyalarni jalb qilish borasida rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar tajribalarining o'ziga xos xususiyatlari alohida o'rganilgan. Shuningdek, tadqiqot yakunida tegishli xulosa va tavsiyalar berilgan.

Eng. - The article attempts to analyze advanced international mechanisms for attracting investments in human capital, assess their effectiveness, and scientifically substantiate the possibilities of their implementation in national practice. The specific features of the experiences of developed and developing countries in attracting investments in human capital are separately studied. Also, relevant conclusions and recommendations are given at the end of the study.

Kalit so'zlar: Keywords:

❖ *inson kapitali, investitsiya, global raqobat, inson kapitali indeksi, innovatsiya, diversifikatsiya, drayver, ta'lim infratuzilmasi, integratsiya.*

❖ *human capital, investment, global competition, human capital index, innovation, diversification, driver, educational infrastructure, integration.*

Kirish.

Jahon iqtisodiyotida raqobatbardoshlikni ta'minlash, barqaror iqtisodiy o'sishga erishish va innovation rivojlanishni qo'llab-quvvatlash omillari ichida inson kapitali hal qiluvchi o'rin egallaydi. XXI asrda jahon iqtisodiyoti taraqqiyotining asosiy drayveri sifatida moddiy resurslar emas, balki bilim, innovatsiya va yuqori malakali inson salohiyati namoyon bo'lmoqda. Global raqobat sharoitida mamlakatlarning iqtisodiy barqarorligi, texnologik mustaqilligi va ijtimoiy farovonligi ko'p jihatdan inson kapitali sifati va unga

yo'naltirilgan investitsiyalar samaradorligiga bog'liq. Bugungi kunda raqamli transformatsiya, sun'iy intellekt texnologiyalari va bilimlarga asoslangan iqtisodiyot sharoitida inson kapitaliga investitsiyalarni jalb qilish masalasi yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

So'nggi yillarda xalqaro tashkilotlar, jumladan Jahon banki va Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) tomonidan inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan strategik yondashuvlar ishlab chiqilmoqda. Xususan, "Human Capital Project" tashabbusi doirasida

inson kapitali indeksi joriy qilinishi mamlakatlar o'rtasida ta'lim va sog'liqni saqlash sohalariga investisiyalar samaradorligini baholash imkonini berdi. Bu esa davlat va xususiy sektor mablag'larini inson kapitaliga samarali jalb etish mexanizmlarini takomillashtirishni talab etmoqda. Ilg'or xorij tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, inson kapitaliga investisiyalarni jalb qilishda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari, ta'lim obligatsiyalari, natijaga asoslangan moliyalashtirish, ta'lim kreditlari va grant dasturlari kabi innovasion moliyaviy instrumentlar keng qo'llanilmoqda. Shuningdek, raqamli ta'lim platformalari, korporativ ta'lim dasturlari va ilmiy-tadqiqot infratuzilmasiga sarmoyalar inson kapitalining sifat jihatdan o'sishini ta'minlamoqda.

O'zbekistonda inson kapitaliga investisiyalarni jalb qilish muhim davlat dasturlarida ustuvor yo'nalishlardan biridir. "Bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish darajasini 80 foizga yetkazish, Prezident va ixtisoslashtirilgan maktablarning baholash tizimi joriy etilgan umumiy o'rta ta'lim muassasalari ulushini 50 foizga yetkazish, umumiy o'rta ta'lim maktablari va akademik lisey bitiruvchilarini oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasini kamida 50 foizga yetkazish, davlat budjetidan sog'liqni saqlash sohasiga ajratiladigan mablag'lar ulushini 2030-yilga qadar yalpi ichki mahsulotning 5 foiziga yetkazish" kabi maqsadlar kelgusida mamlakatda inson kapitaliga davlat investisiyalarini jalb qilish samaradorligini belgilaydi [1].

Ilmiy adabiyotlarda inson kapitali tushunchasi ilk bor tizimli ravishda Theodore Schultz va Gary Becker [2] tomonidan asoslab berilgan bo'lib, unda ta'lim, sog'liqni saqlash, kasbiy tayyorgarlik va malaka oshirishga yo'naltirilgan sarmoyalar iqtisodiy o'sishning muhim manbai sifatida e'tirof etilgan. Ayniqsa, rivojlangan mamlakatlarda ta'lim tizimini diversifikatsiya qilish, universitetlarni moliyaviy mustaqilligini oshirish va xususiy sektor ishtirokini kengaytirish orqali inson

kapitaliga investisiyalar hajmini ko'paytirishga erishilmoqda. Rivojlanayotgan davlatlarda esa xalqaro moliya institutlari ko'magida ta'lim va sog'liqni saqlash sohalariga maqsadli investisiyalar jalb etish amaliyoti shakllanmoqda. Shu nuqtai nazardan, inson kapitaliga investisiyalarni jalb qilishning ilg'or xorij tajribalarini o'rganish va ularni milliy iqtisodiyot sharoitiga moslashtirish ilmiy va amaliy jihatdan muhim hisoblanadi. Mazkur maqolaning maqsadi - inson kapitaliga investisiyalarni jalb qilishning ilg'or xalqaro mexanizmlarini tahlil qilish, ularning samaradorligini baholash hamda milliy amaliyotga tatbiq etish imkoniyatlarini ilmiy asoslashdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Inson kapitali ko'plab tarkibiy qismlardan tashkil topgan keng sig'imli tushunchadir. Eng umumiy ma'noda, bu tushuncha insonga iqtisodiy foyda yaratish, o'z kuch va qobiliyatlarini munosib ravishda qo'llash imkonini beradigan barcha bilim, ko'nikma, qobiliyat, malaka, motivatsiya, rag'batlantirish va salomatlikni o'z ichiga oladi.

Bu atamaning asoschisi 1958-yilda "Inson kapitaliga investisiyalar va shaxsiy daromadlarni taqsimlash" nomli maqolasini nashr etgan Jeykob Minserdin [3]. Bu konsepsiya keyinchalik Nobel mukofoti laureatlari bo'lgan olimlar Garri Bekker va Teodor Shuls tomonidan ishlab chiqilgan. Ular inson kapitaliga investisiyalar samaradorligi g'oyasini ishlab chiqdilar, uni ishlab chiqarishning asosiy omili sifatida asosladilar. Ko'plab iqtisodiy maktablar inson kapitalini o'rganishga harakat qilishgan. Masalan, A. Marshall "inson kapitali kapitalning bir shaklidir, chunki u kelajakdagi ish haqi, daromad (mukofot) yoki kelajakdagi qoniqish yoki ikkalasining ham manbai hisoblanadi. U insonga xos bo'lib, insonning ajralmas qismidir deb hisoblagan" [4].

E. Dolan inson kapitalining mohiyatini "trening yoki amaliy tajriba orqali olingan aqliy

qobiliyatlar ko'rinishidagi kapital" [5] deb tushungan.

Inson kapitalini rivojlantirishning nazariy jihatlarini bilan respublikamiz olimlaridan akademik Q.X. Abdurahmonov, R.A. Ubaydullayeva, A. O'lmasov, A. Vahobov, G.Q. Abduraxmonova, S.A. Bozorova va boshqalarning mazkur sohaga dahldor ilmiy tadqiqot ishlarini ko'rsatish mumkin. Masalan, O'zbekistonlik iqtisodchi olimlardan Akademik Q.X. Abdurahmonovning fikricha, "inson kapitalini ahamiyati tabiiy resurslar, moddiy boylik va vositalarga qaraganda yuqoriroqdir" [6]. Jumladan, mamlakatimiz olimlaridan H.P. Abulqosimov rahbarligida tayyorlangan "Inson taraqqiyoti" nomli darslikda umumiy yondoshuv ham eslatib o'tilgan. "Iqtisodiyot fanida inson kapitali deyilganda insonning intellektual jismoniy va ma'naviy salohiyati, ya'ni bilimi, malakasi, salomatligi va boshqa xususiyatlari jamlanmasi tushuniladi" [7] deyilgan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot ishi olib borish jarayonida mantiqiy fikrlash, prognozlash, sintez, tizimli yondashuv, tarkibiy va qiyosiy tahlil, iqtisodiy taqqoslash, ilmiy umumlashtirish, statistik hisoblash usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Zamonaviy global iqtisodiyot sharoitida inson resurslari iqtisodiy o'sishning strategik omili sifatida namoyon bo'lmoqda. Bunda iqtisodiy taraqqiyot sur'ati nafaqat mehnat resurslari miqdoriga, balki ularning qisqa muddat ichida samarali inson kapitaliga transformatsiyalanish darajasiga ham bog'liq. Xalqaro qiyosiy tahlillar ushbu fikrni nazariy va empirik jihatdan tasdiqlab, inson resurslarining sifat jihatdan yangilanishi mamlakat raqobatbardoshligini belgilab beruvchi asosiy omillardan biri ekanini ko'rsatmoqda.

Yuqori darajada rivojlangan mamlakatlar inson kapitaliga investisiya kiritish bo'yicha

uzoq muddatli va tizimli strategiyalarni amalga oshirmoqda. Ta'lim, sog'liqni saqlash, ilmiy tadqiqotlar va madaniyat sohalariga yo'naltirilayotgan sarmoyalar hajmining barqaror o'sishi Qo'shma Shtatlar, Shvesiya, Janubiy Koreya, Xitoy hamda Finlyandiya kabi davlatlarda iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishiga aylangan. Bu mamlakatlarda inson kapitaliga investisiyalar innovasion rivojlanishni rag'batlantirish, mehnat unumdorligini oshirish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashning asosiy vositasi sifatida qaraladi. Shuningdek, ayrim rivojlangan davlatlarda ijtimoiy siyosat doirasida oila institutini qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, Shvesiya, Germaniya va Qo'shma Shtatlarda ko'p bolali oilalar uchun kengaytirilgan turar joy dasturlari amalga oshirilib, ularning yashash sharoitlarini yaxshilashga qaratilgan infratuzilmaviy loyihalar qo'llab-quvvatlanmoqda. Bu kabi chora-tadbirlar demografik barqarorlikni ta'minlash, mehnat resurslarining takror ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash va uzoq muddatli inson kapitali salohiyatini mustahkamlashga xizmat qiladi. Umuman olganda, xalqaro tajriba inson kapitaliga yo'naltirilgan investisiyalar iqtisodiy o'sishning sifat jihatdan yangi bosqichini ta'minlashini, uning barqarorligi esa davlat siyosati, moliyaviy ustuvorliklar va institusional muhit samaradorligi bilan bevosita bog'liq ekanini ko'rsatadi. Inson kapitaliga investisiyalarni yo'naltirishda rivojlangan mamlakatlardagi asosiy tamoyillar: bolalar ta'limida maktabgacha ta'lim sohasiga katta e'tibor qaratiladi; maktab va oliy ta'lim sifati qattiq nazorat qilinadi; sog'liqni saqlash xarajatlari yetarli darajada; mehnat bozorida faol davlat siyosati amalga oshiriladi; ilmiy tadqiqot va innovatsiyalar qo'llab-quvvatlanadi. Ushbu tamoyillarning amaldagi holatini quyidagi 1-jadval ma'lumotlari ham isbotlaydi.

1-jadval

Ayrim rivojlangan mamlakatlarda inson kapitali ko'rsatkichlari (2022-y.) [8]

Mamlakatlar	Davlat ta'lim xarajatlari (% YaIM)	Davlat sog'liqni saqlash xarajatlari (% YaIM)	Ilmiy tadqiqot va ishlanmalarga davlat xarajatlari (% YaIM)	Inson kapitali indeksi (HDI/HCI) 2020-y.
AQSh	5,42	9,10	3,59	0,70
Yaponiya	3,24	9,82	3,41	0,80
Finlyandiya	6,38	7,89	2,96	0,79
Daniya	6,36	7,96	2,89	0,75
Shvetsiya	7,32	9,02	3,41	0,79
Singapur	2,49	2,77	2,16	0,87
Koreya	5,81	6,12	5,21	0,79

Jadval ma'lumotlariga ko'ra, tanlangan rivojlangan mamlakatlarda 2022-yilda ta'lim xarajatlarining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi eng kam Singapurda 2,49 foiz, eng ko'p Shvesiyada 7,32 foizni tashkil qilgan. Sog'liqni saqlash sohasiga xarajatlarda Yaponiya ilg'or bo'lib, YaIMning 9,82 foizini, eng kam yana Singapurda YaIMning 2,77 foiziga teng bo'lgan. Shu jumladan, ushbu mamlakatlarda ilmiy tadqiqot va ishlanmalarga xarajatlarda Koreya va AQSh davlatlari peshqadamdir. 2020-yildagi inson kapitali indeksi ko'rsatkichida esa Singapur va Yaponiya davlatlarini alohida ta'kidlash mumkin.

Dastlab, inson kapitaliga investisiyalarni jalb qilish borasida AQSh davlati tajribalarini ko'rib chiqamiz. Inson kapitaliga investisiyalarni yo'naltirishda AQShda innovatsiya va xususiy sektor uyg'unligidagi modelni kuzatish mumkin. Ayniqsa, xususiy sektor ulushi yuqori bo'lib, oliy ta'limni moliyalashtirishda tijorat banklari va fondlar ishtirok etadi. AQSh universitetlarida o'qish narxidagi farqlar nafaqat talabaning maqomi, balki talabaning yashash joyi va muassasaning joylashuvi bilan ham bog'liq. Qoida tariqasida, mahalliy talabalar, ayniqsa davlat muassasalarida, shahar tashqarisidagi yoki xalqaro talabalarga qaraganda ko'proq imtiyozlarga ega bo'ladilar. "Amerikada ta'limni asosan davlat tomonidan nazorat qilinadi va uch darajada moliyalashtiriladi: federal, shtat va mahalliy hukumatlar. Oliy

ta'lim muassasalari asosan xususiy bo'lib, butun dunyodan bakalavr va magistr talabalarini jalb qiladi. AQShda savodxonlik darajasi 97 foizni tashkil qiladi" [9].

"Qo'shma Shtatlarda eng past ta'lim xarajatlari 2020-yilda qayd etilgan bo'lib, davlat ta'limi xarajatlari jami budjet xarajatlarining 12,65 foizini tashkil etgan. Umumiy davlat ta'limi xarajatlari 2000-yilda eng yuqori cho'qqiga chiqqan bo'lib, o'shanda ular AQSh budjetining 17,99 foiziga teng bo'lgan. 2022-yilda Qo'shma Shtatlarda sog'liqni saqlashga sarflangan davlat xarajatlari umumiy davlat xarajatlarining 24,74 foizni tashkil etdi. 2021-yilda bu ko'rsatkich 21,37 foizni tashkil etgan. Bu pasayishdan keyingi birinchi o'sish yili. Davlat xarajatlarida sog'liqni saqlash xarajatlarining eng past ulushi 2000-yilda qayd etilgan bo'lib, 16,16 foizni tashkil etdi" [10].

Inson kapitali siyosatining yana bir samarali namunasi sifatida ijtimoiy davlat tamoyillari va yuqori sifatli inson kapitali uyg'unligiga asoslangan Skandinaviya modeli e'tirof etiladi. Xususan, Daniya, Shvesiya va Finlyandiyada ta'lim va sog'liqni saqlash sohalari davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari hisoblanadi. Mazkur mamlakatlarda inson kapitaliga investisiyalar ijtimoiy tenglikni ta'minlash va iqtisodiy raqobatbardoshlikni kuchaytirishning asosiy vositasi sifatida qaraladi. Ayniqsa, Daniya tajribasida mehnat bozorining "Egiluvchanlik"

modeli diqqatga sazovordir. Ushbu yondashuv mehnat bozorini nisbatan erkinlashtirish bilan birga, ishsiz shaxslarni qayta tayyorlash, malakasini oshirish, ta'lim ta'tillari va mehnat bozoriga qayta integratsiya dasturlarini faol amalga oshirishni nazarda tutadi. Natijada ish beruvchilar uchun kadrlar harakatchanligi va moslashuvchanligi ta'minlansa, xodimlar uchun esa kuchli ijtimoiy himoya mexanizmlari yaratiladi. Finlyandiya inson kapitali siyosatining o'ziga xos modeli bilan ajralib turadi. Bu yerda magistratura bosqichigacha bepul ta'lim tizimi joriy etilgan, ta'lim oluvchilar uchun teng imkoniyatlar tamoyili ustuvor ahamiyatga ega. Shuningdek, ta'lim jarayonida standartlashtirilgan testlarga ortiqcha tayanish emas, balki tanqidiy fikrlash, mustaqil tahlil va ijodkorlikni rivojlantirishga e'tibor qaratiladi. Ushbu yondashuv natijasida innovasion iqtisodiyot shakllanib, aholining hayot sifati yuqori darajaga ko'tarilgan. Umuman olganda, yuqoridagi mamlakatlar tajribasi inson kapitaliga yo'naltirilgan investisiyalar samaradorligi ijtimoiy tenglik, institusional barqarorlik va innovasion rivojlanish bilan uyg'un holda amalga oshirilgan taqdirda barqaror iqtisodiy o'sishga erishish mumkinligini ko'rsatadi. Asosiy g'oya-ijtimoiy adolatni ta'minlash orqali inson salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish va uni innovasion taraqqiyot bilan integratsiyalashdan iborat. "Finlyandiyada 2022-yilda ta'limga sarflangan davlat xarajatlari budjetning 12,12 foizini tashkil etgan. Ta'limga sarflangan eng past xarajatlar 2020-yilda qayd etilgan bo'lib, umumiy davlat xarajatlarining 11,84 foizini tashkil etgan. Ta'limga sarflangan davlat xarajatlarining umumiy ulushi 2012-yilda eng yuqori cho'qqiga chiqdi, o'shanda u Finlyandiya budjetining 12,88 foiziga yetdi. Shu jumladan, 2022-yilda Finlyandiyada sog'liqni saqlashga sarflangan davlat xarajatlari umumiy davlat xarajatlarining 14,82 foiziga teng bo'lib, ushbu ko'rsatkich 2021-yilda 14,34 foizni tashkil etdi. Mamlakat ketma-ket ikki yil davomida o'sish

kuzatildi. Davlat xarajatlarida sog'liqni saqlash xarajatlarining eng past ulushi 2000-yilda qayd etilgan bo'lib, u 11,20 foizga teng bo'lgan" [11].

Inson kapitaliga investisiyalarni jalb qilish va uni strategik resurs sifatida shakllantirishda Singapur hamda Janubiy Koreya tajribasi alohida ahamiyatga ega. Ushbu davlatlarda tabiiy resurslar zaxiralarning cheklanganligi iqtisodiy rivojlanishning asosiy drayveri sifatida inson kapitaliga tayanishni taqozo etdi. Natijada, davlat siyosati darajasida ta'lim, kasbiy tayyorgarlik va texnologik kompetensiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan uzoq muddatli strategiyalar ishlab chiqildi. Janubiy Koreya 1960-1970-yillardan boshlab sanoatlashuv siyosati ta'lim tizimi bilan uzviy bog'liq holda amalga oshirildi. Davlat tomonidan muhandislik, texnik fanlar va tabiiy fanlarga ustuvor ahamiyat berilishi yuqori malakali kadrlar tayyorlash imkonini yaratdi. Ta'lim infratuzilmasiga yo'naltirilgan strategik investisiyalar sanoat tarmoqlarining diversifikatsiyasiga, yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulot ishlab chiqarishga va eksport salohiyatining oshishiga xizmat qildi. Bu jarayonda davlat va xususiy sektor o'rtasidagi muvofiqlashtirilgan hamkorlik inson kapitalini sanoat ehtiyojlariga mos ravishda shakllantirish imkonini berdi.

Singapur modeli esa inson kapitaliga investisiyalarni jalb qilishning institusional jihatdan puxta o'ylangan tizimi bilan ajralib turadi. Mamlakatda dunyo darajasidagi universitetlarni shakllantirish, uzluksiz ta'lim tamoyilini joriy etish va raqamli ko'nikmalarni ommalashtirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Shuningdek, mehnat bozori talablariga mos ravishda doimiy qayta tayyorlash va malaka oshirish dasturlari amalga oshirilib, kadrlar raqobatbardoshligi ta'minlanmoqda.

Singapurda xorijiy investisiyalarni jalb qilish siyosati inson kapitali siyosati bilan chambarchas bog'langan. Hukumat xorijiy kompaniyalar bilan hamkorlikda texnik

mutaxassislarni tayyorlash dasturlarini ishlab chiqqan. Korxonalar ehtiyojidan ortiq taxminan ikki baravar ko'p texnik kadrlarni tayyorlash tavsiya etilgan va ularni ishga qabul qilishda mahalliy bitiruvchilarga ustuvorlik berilgan. Ortiqcha tayyorlangan malakali mutaxassislar esa yangi investorlarni jalb qilishda "kadrlar zaxirasi" sifatida xizmat qilgan. Bu yondashuv mehnat bozorida taklif va talab muvozanatini ta'minlash, shu bilan birga investision jozibadorlikni oshirish imkonini bergan. Keyinchalik kasb-hunar ta'limi muassasalarini integratsiya qilish orqali yagona institusional tizim shakllantirildi va Texnik ta'lim instituti tashkil etildi. Ushbu institut Ta'lim vazirligi homiyligida faoliyat yuritib, texnik va amaliy yo'nalishlarda yuqori sifatli kadrlar tayyorlashni ta'minlaydi. Bu esa inson kapitaliga investisiyalarning tizimli va samarali boshqarilishiga xizmat qilmoqda.

Umuman olganda, Singapur va Janubiy Koreya tajribasi inson kapitaliga yo'naltirilgan strategik investisiyalar, davlat va biznes o'rtasidagi hamkorlik hamda mehnat bozori talablariga moslashuvchan ta'lim tizimi orqali yuqori rentabellikka ega innovasion iqtisodiyotni shakllantirish mumkinligini namoyon etadi. Bu modellar inson kapitaliga sarmoya kiritishni iqtisodiy taraqqiyotning asosiy sharti sifatida ko'radi va uning institusional, moliyaviy hamda tashkiliy mexanizmlarini kompleks ravishda amalga oshirishni taqozo etadi. "Bundan tashqari, Singapur ta'lim natijalarini yaxshilash vositasi sifatida xalqaro taqqoslashlardan faol foydalanadi: mamlakat ko'p yillar davomida Xalqaro matematika va fanlarni o'rganish vaqti (TIMSS)da va 2009-yildan beri Xalqaro talabalarni baholash dasturida (PISA) ishtirok etib kelmoqda. Xalqaro baholashlarga ko'ra, Singapur bugungi kunda dunyodagi eng yuqori ta'lim yutuqlaridan biriga ega. Uning fan, o'qish va matematika bo'yicha PISA ballari boshqa barcha ishtirokchi mamlakatlarga qaraganda ancha yuqori" [12].

Ta'lim sohasida inson kapitaliga investisiya kiritishga e'tibor qaratgan Janubiy Koreyaning tajribasi qiziqarli. Bu unga "bilim iqtisodiyoti" modelini yaratish imkonini berdi. Bu yerda inson kapitalini shakllantirishning asosi keng aholi madaniyatidir. Janubiy Koreya talabalarni qabul qilish bo'yicha dunyoda yetakchilar qatorida turadi. Fan va ta'limga xususiy investisiyalar mamlakatning eng yirik korporatsiyalarining xayriya mablag'lari tufayli katta ahamiyatga ega. Mehnatga layoqatli aholisi ko'p bo'lgan Koreya mamlakati ko'plab sohalarda to'g'ri siyosat yuritish orqali iqtisodiy o'sishni tezlashtirdi. Hukumat ta'lim va kasb-hunar ta'limi strategiyasini yuqori malakali ishchi kuchini rivojlantirishga yo'naltirdi. "Ishlab chiqarishga yo'naltirilgan ta'lim" strategiyasi orqali fuqarolar iqtisodiy rivojlanish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarga ega bo'ldilar. Mamlakat shuningdek, mehnat talab qiladigan sohalarga investisiyalar kiritishga, qishloq joylarda infratuzilmani rivojlantirish va qurilish dasturlariga maqsadli investisiyalarga va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiyalarni jalb qilish uchun qulay biznes muhitini yaratishga qaratilgan keng qamrovli iqtisodiy rivojlanish rejalarini qabul qildi. "Koreya davlati sog'liqni saqlash, ta'lim va iqtisodiy o'sish sohalarida bir vaqtning o'zida siyosat yuritish bo'yicha fundamental qaror qabul qildi, bu esa ushbu siyosatlarning bir-birini o'zaro mustahkamlashiga, samaradorligini oshirishga va bir necha o'n yilliklar davomida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashga imkon berdi"[13].

Inson kapitaliga investisiyalarni jalb qilishda rivojlanayotgan mamlakatlar orasida Xitoy tajribasi alohida ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. So'nggi qirq yil davomida mazkur davlat inson kapitaliga yo'naltirilgan investisiyalarni tizimli ravishda oshirish orqali barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlagan va "iqtisodiy mo'jiza" sifatida e'tirof etilgan modelni shakllantirgan. Xitoy taraqqiyotining asosiy drayverlari sifatida ta'lim, sog'liqni

saqlash, fan-texnika va mehnat bozori infratuzilmasiga yo'naltirilgan uzoq muddatli davlat investisiyalari namoyon bo'ladi. Xitoy modeli uchta ustuvor tamoyilga asoslanadi: davlatning strategik yetakchiligi, uzoq muddatli rejalashtirish va ta'lim-innovatsiya-sanoat integratsiyasi. Davlat inson kapitalini milliy raqobatbardoshlikning asosiy omili sifatida belgilab, institusional islohotlar va moliyaviy resurslarni muvofiqlashtirish orqali uning barqaror shakllanishini ta'minladi. Bunda ta'lim tizimi sanoat siyosati va innovasion rivojlanish strategiyasi bilan uyg'unlashtirildi. Majburiy ta'lim sohasida boshlang'ich va o'rta ta'lim qamrovini deyarli to'liq darajaga yetkazish, shahar va qishloq hududlari o'rtasidagi ta'lim sifatining farqini qisqartirish hamda kambag'al hududlarga maqsadli grantlar ajratish ustuvor vazifalar sifatida belgilandi. Bu chora-tadbirlar inson kapitalining hududiy va ijtimoiy jihatdan teng taqsimlanishiga xizmat qildi. 1999-yildan boshlab Xitoyda oliy ta'limni ommaviylashtirish siyosati amalga oshirildi.

Natijada talabalar soni keskin oshdi, universitetlar infratuzilmasi kengaytirildi va ilmiy tadqiqotlar hajmi sezilarli darajada o'sdi. Shuningdek, Xitoyda chet ellarda ta'lim olgan mutaxassislarni mamlakatga qaytarish siyosati ham faol amalga oshirildi. Ilmiy xodimlar uchun maxsus grantlar, soliq imtiyozlari, innovasion startaplarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash va tadqiqot infratuzilmasiga kirish imkoniyatlari yaratildi. Bunday choralar "aqlar oqimi" muammosini qisqartirishga va "aqlar qaytishi" tendensiyasini kuchaytirishga xizmat qildi. Umuman olganda, Xitoy tajribasi inson kapitaliga investisiyalarni jalb qilishda davlatning faol strategik roli, ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, innovatsiya va sanoat integratsiyasi hamda global intellektual resurslarni jalb etish mexanizmlarining uyg'unligi muhim ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi. Bu model rivojlanayotgan mamlakatlar uchun inson kapitaliga sarmoya kiritishni uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlik va raqobatbardoshlikning asosiy sharti sifatida qarash zarurligini anglatadi.

2-jadval

Xitoyda inson kapitaliga investitsiyalar ko'rsatkichlari [14]

Ko'rsatkichlar	Yillar				
	2019	2020	2021	2022	2023
<i>Ta'limga davlat xarajatlari (% YaIM)</i>	4,0	4,23	3,99	4,02	4,0
<i>Sog'liqni saqlashga davlat xarajatlari (% YaIM)</i>	3,0	3,06	2,91	2,95	3,0
<i>Ilmiy tadqiqot va ishlanmalarga davlat xarajatlari (% YaIM)</i>	2,24	2,41	2,43	2,56	2,6
<i>Inson kapitali indeksi (HDI/HCI)</i>	0,76	0,76	0,77	0,79	0,80

2-jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda Xitoyda ta'limga sarflangan davlat xarajatlari YaIMning 4,0 foizini tashkil etdi. Ta'limga sarflangan davlat xarajatlarining eng past darajasi 1971-yilda qayd etilgan bo'lib, YaIMning 1,39 foizi tashkil etgan. Xitoy YaIMda ta'limga sarflangan davlat xarajatlarining eng yuqori foizi 2012-yilda qayd etilgan bo'lib, ushbu ko'rsatkich 4,30 foizga teng bo'lgan. Xitoyda sog'liqni saqlashga davlat xarajatlari 2023-yilda YaIMning 3,0 foizini tashkil etib, 2021-yilda bu ko'rsatkich 2,91 foizga teng bo'lgan. Sog'liqni saqlashga eng past xarajatlar

2001-yilda qayd etilgan bo'lib, YaIMning 0,97 foizini tashkil etdi. Xitoyda sog'liqni saqlashga davlat xarajatlarining YaIMga nisbatan eng yuqori foizi 2020-yilda qayd etilgan bo'lib, ushbu ko'rsatkich 3,06 foizga yetgan. Shuningdek, tadqiqot va ishlanmalarga sarflangan xarajatlar 2023-yilda YaIMning 2,6 foizini tashkil etib, 2019-yilga nisbatan 0,36 punktga oshgan. Tadqiqot va ishlanmalarga sarflangan eng past yalpi ichki xarajatlar 1996-yilda qayd etilgan bo'lib, YaIMning 0,56 foiziga teng bo'lgan.

Umuman olganda, tahlil natijalari jahon ilm-fan tizimida "ilmiy markazlar polisentrikligi" shakllanayotganini ko'rsatadi. Ilmiy-texnik kadrlar ulushining Osiyo mintaqasiga siljishi global raqobatning kuchayishi, innovasion iqtisodiyotning kengayishi va inson kapitaliga investisiyalarning strategik ahamiyati ortib borayotganini tasdiqlaydi. Shu munosabat bilan, mazkur tendensiyalar rivojlanayotgan davlatlar, jumladan O'zbekiston uchun inson kapitaliga investisiyalarni oshirish, ilmiy kadrlar tayyorlash tizimini modernizatsiya qilish va milliy innovasion tizimni kuchaytirish zarurligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Xulosa va takliflar.

O'zbekistonda ilg'or mamlakatlar tajribalaridan kelib chiqib, inson kapitalini rivojlantirish bo'yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlar sifatida quyidagilarni aytish mumkin: birinchidan, yuqori malakali ishchilarning mamlakatimizga kirishiga va ularni eng zarur bo'lgan joylarga joylashtirishga ustunlik berishni nazarda tutuvchi puxta o'ylangan migratsiya siyosati; ikkinchidan, ilgari O'zbekistonni tark etgan olimlarning qaytishini rag'batlantirish choralari ko'rish, shu bilan birga

yangilarining ketishiga yo'l qo'ymaslik; uchinchidan, malakali kadrlar tayyorlash bo'yicha oliy ta'limda mamlakatlar o'rtasida qo'shma talabalar almashinuv dasturlarini ishlab chiqish; to'rtinchidan, ko'p bolali oilalar uchun uch va to'rt xonali kvartiralar qurishga ustuvor ahamiyat berish (Shvesiya, AQSh, Germaniya tajribasi); beshinchidan, ishchilarni har 1,5-2 yilda qayta tayyorlash (Yaponiya tajribasi); oltinchidan, ta'lim darajasiga qarab tabaqalashtirilgan ish haqini joriy etish (AQSh, Janubiy Koreya, Yaponiya tajribasi); yettinchidan, ta'lim muassasalarida kelajakdagi mutaxassislik bo'yicha amaliy ko'nikmalarni egallash (AQSh, Germaniya tajribasi); sakkizinchidan, oliy ta'lim uchun ajratilgan davlat mablag'lari ulushini oshirish (Finlyandiya tajribasi); to'qqizinchidan, ta'lim, sog'liqni saqlash, fan va madaniyatni rivojlantirishga xususiy kapitalni faol jalb qilish (AQSh, Janubiy Koreya, Germaniya va boshqalar tajribasi); o'ninchidan, tashkilotlar, muassasalar va korxonalarda xodimlarning doimiy ravishda rotatsiyasi (AQSh, Germaniya va boshqalar tajribasi); o'n birinchidan, universitetlar va kompaniyalar tomonidan mutaxassislarni qo'shma ko'p tarmoqli o'qitishni ishlab chiqish va amalga oshirish (Germaniya tajribasi va boshqalar).

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son Farmoni.
2. Блауг М. 100 великих экономистов после Кейнса. – СПб.: Экономикс, 2009. – 384 с.
3. Minser J. Investment in Human Capital and Personal Income Distribution. *Journal of Political Economy, Supplement, October 1958.*
4. Маршалл А. Принципы экономической науки [Текст]: [в 3 т.: перевод с английского] / А. Маршалл; [авт. вступ. ст.: Дж. М. Кейнс]. – Москва: Прогресс; Москва: Фирма "Универс", 1993. – С. 266-267; Т. 3, С. 30-34, 79.
5. Рынок: микроэкономическая модель / Э.Д. Долан, Д.Е. Лундсей [Пер. с англ.]. – Санкт-Петербург: Печатный Двор, 1992. – 496 с.
6. Abdurahmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti. – T.: Mehnat, 2009. – B. 182.
7. Inson taraqqiyoti. Darslik. I.f.d., professor Q.X.Abduraxmanov tahriri ostida. – "Fan va texnologiya". 2013. – 31 bet.
8. Jahon banki va xalqaro statistika saytlari ma'lumotlari asosida tadqiqotchi tomonidan ishlab chiqildi. <https://www.worldbank.org/en/publication>, <https://statbase.org/datasets/science-and-education/>

9. Масленников М. И. Развитие человеческого потенциала в России и в зарубежных странах. [Электронный ресурс]. URL: <http://cyberleninka.ru/article/n/razvitielovecheskogo-potentsiala-v-rossii-i-v-zarubezhnyh-stranah> (дата обращения: 04.03.2024).

10. Jahon statistika bazasi ma'lumotlari. <https://statbase.org/datasets/science-and-education/>

11. Jahon statistika bazasi ma'lumotlari. <https://statbase.org/datasets/science-and-education/>

12. Jahon banki ma'lumotlari. <https://www.worldbank.org/en/publication/human-capital>

13. Population Reference Bureau. 2012. <https://www.prb.org/south-korea-population/>

14. Jahon statistika bazasi ma'lumotlari. <https://statbase.org/datasets/science-and-education/>